

UNDALMALAR KO‘P VAZIFALI SINTAKTIK BIRLIK SIFATIDA

Jetkerbay SEYTJANOV

filologiya fanlari nomzodi, professor

Berdaq nomli Qoraqalpoq davlat universiteti

***Annotatsiya.** Undalmaga tilshunoslarning dozarb muammolari qatorida doimo tadqiqot obyekti sifatida qaralib kelingan. Buning asosiy asbabi undalma nihoyatda murakkab, serqirra sintaktik birlik bo‘lib, unda fonetik, leksik, grammatik, stilistik va pragmatik belgilar mujassam etganligidadir.*

***Kalit so‘zlar:** undalma, sintaktik, atash, ijtimoiy boshqaruv, ritorika, universal, predikativ, vokativ.*

Undalmaning polifunksional xususiyatlari tilshunoslikdagi yangi yo‘nalishlar uchun (matn lingvistikasi, lingvopragmatika, kognitiv lingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, chet tilini o‘qitishda madaniyatlararo muloqot, lingvomadaniy prinsiplar) tekshirish obyektiga aylanmoqda.

Undalma nutqda uch xil maqomda kelishi mumkin:

- 1) mustaqil bir tarkibli vokativ gap (undalma - gap) maqomida;
- 2) murakkablashgan gap tarkibida yarim – predikativ sintaktik birlik maqomida;
- 3) kirish gap bo‘lagi maqomida.

Bunday maqomlarda kelgan undalmalar o‘z ma‘nosi, intonatsiyasi va ular oxiridagi pauzaning qisqa-uzunligi bilan farqlanadi.

Mustaqil bir tarkibli vokativ gap maqomida kelgan undalma gapning barcha belgilari: modallik, zamon, shaxs va son kategoriyalariga ega. Predikativlik to‘liq, ya’ni kuchsizlanmagan bo‘ladi.

Murakkablashgan gap tarkibidagi undalmada predikativlik kuchsizlangan bo‘ladi. Kuchsizlangan tugallanmaganlikni anglatish undov intonatsiyasi va pauzaning qisqarishi evaziga yuz beradi.

Gapning kirish bo‘lagi maqomida kelgan undalma tinglovchi e’tiborini o‘z nutqiga qaratish emas, balki uning e’tiborini saqlab turish uchun ishlatiladi.

Undalma polifunksional sintaktik birlik bo‘lib, u ikkala tilda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- 1) atash (nominativ) vazifasi;
- 2) soʻzlovchining tinglovchi eʼtiborini oʻz nutqiga qaratish vazifasi;
- 3) baholash vazifasi;
- 4) perlokutiv (tinglovchiga taʼsir oʻtkazish) vazifa;
- 5) nutq qaratilgan shaxsni identifikatsiya qilish vazifasi;
- 6) iltifot, hurmat ifodalash vazifasi;
- 7) deyktik (koʻrsatish) vazifasi;
- 8) his-hayajonni ifodalash vazifasi;
- 9) ijtimoiy boshqaruv vazifasi.

Odatda, bir undalma bir vaqtning oʻzida bir qancha vazifa bajaradi. Buni “vazifalar sinkretizmi” deb atadik. Lekin bunda bir vazifa boshqa vazifalarga nisbatan muhimroq boʻladi.

Undalma lingvokulturemalardan biri sanalib, nutq etiketlari tarkibiga kiradi. Undalma universal sintaktik birlik boʻlib, u har qanday tilda keng ishlatiladi. Buning sababi muloqot boʻlishi uchun kamida ikki kommunikant – soʻzlovchi va tinglovchi – boʻlishi shart ekanligidadir. Bunda undalma adresatni (tinglovchini) ifodalaydi.

Undalmalar kichik sintaktik tizimni hosil qiladi. Bu tizim ichidan nutq jarayonida maʼlum bir undalma shaklini tanlab olish nutq vaziyatiga, kommunikantlarning ijtimoiy maqomiga, yoshiga, bir-birlarini yaxshi tanishiga, doʻstona munosabati darajasiga, qarindoshlik darajasiga, jinsiy farqiga, axloqiga, kayfiyatiga, millatiga, suhbat mavzusiga, bir-biriga nisbatan turgan masofasiga, muloqot davrida nutq qaratilgan shaxsning koʻrinib turganligi yoki koʻrinmayotganligiga, muloqot joyiga, tinglovchining ismi soʻzlovchiga maʼlum yoki nomaʼlum boʻlganligiga bogʻliq holda tanlanadi. Demak, undalmani muloqotda tanlash va uni tushunish kommunikantlardan muayyan bilimni talab qiladi. Undalmani nooʻrin tanlash kommunikantlar oʻrtasida ziddiyat tugʻdirishi mumkin. Chet tilni oʻsha tilda gapiruvchi millatning madaniyatini oʻrganmasdan turib, toʻliq tushunib boʻlmaydi.

Maʼlum kontekstda kelgan undalmalar yondosh gap bilan yoki uning boʻlaklari bilan semantik munosabatga kirishadi. Bu munosabat undalma va gap boʻlaklari

ifodalagan referentlarning aynan bir xilligida sodir bo‘ladi. Bunday hodisa matn tilshunosligida yoki “qayta atash” deb ataladi.

Undalmalar tanlovi nutq vaziyatidan, kommunikant ijtimoiy maqomidan, yoshidan, bir-birlarini yaxshi tanishidan, do‘stonalik munosabati darajasidan, qarindoshlik darajasidan, jinsiy farqidan, axloqidan, kayfiyatidan, millatidan, suhbat mavzusidan, bir-biriga nisbatan turgan masofasidan, muloqot davrida nutq qaratilgan shaxsning ko‘rinib turganligi yoki ko‘rinmayotganligidan, munosabat o‘rnidan, tinglovchining ismi so‘zlovchiga ma’lum yoki noma’lum bo‘lganligidan kelib chiqiladi.

Undalmalardagi asosiy farqlar undalma ifodalagan shaxsga so‘zlovchi munosabatining ikki tilda turlicha ifodalanishi bilan izohlanadi. Ayniqsa, o‘zbek tilida undalma ifodalagan shaxsga salbiy va ijobiy munosabat bildiruvchi vositaning ingliz tilidagi vositalarga nisbatan rang-barangligi kuzatiladi.

Undalma bo‘yicha ilmiy ishlarni tahlil qilish natijasida shu narsa aniqlandiki, dastlabki ishlarda undalmaning faqat bir yoki ikkita vazifasi aniqlangan (nutq qaratilgan shaxsni atash, uning e’tiborini nutqga qaratish). Tilshunoslikda yangi yo‘nalishlarning – nutq akti nazariyasi, matn nazariyasi va lingvopragmatikaning paydo bo‘lishi bilan undalmaning vazifasi ko‘p ekanligi aniqlandi. Bu fikrlarning ko‘pchiligi bir-biriga zid emas, balki ular bir-birini to‘ldiradi.

Ma’lumki, muloqot bo‘lishi uchun kamida ikkita kommunikant, ya’ni so‘zlovchi va tinglovchi bo‘lishi kerak. So‘zlovchi tinglovchining e’tiborini o‘z nutqiga qaratish uchun avval uni odatda ataydi. Ikki kommunikant muloqotga kirishganda aksariyat holatlarda so‘zlovchi tinglovchining nomini tilga oladi.

Ijobiy munosabat ifodalovchi undalmalar ishlatilganda tinglovchining so‘zlovchi da’vatini bajarish ehtimoli neytral yoki salbiy munosabat ifodalovchi undalmalarga nisbatan yuqori bo‘ladi. Demak, muloqotda so‘zlovchi o‘z maqsadiga erishish uchun turlicha ijobiy munosabat ifodalovchi undalma shakllarini yaxshi bilishi va o‘z o‘rnida ishlata bilishi kerak. Ijobiy munosabat ifodalovchi undalmalar, ayniqsa, biznesda muhim ahamiyatga ega, ya’ni ular biznesni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vlasov S., Florin S. Neperevodimoye v perevode. –M.: Mejdunarodniye otnosheniya, 1980.
2. Formanovskaya N.I. Vi skazali: «Zdravstvuyte», rechevoy etiket v nashem obshenii. Izd. 3. –M.: Znaniye, 1989.
3. Maslova V.A. Lingvokulturologiya (uchebnoye posobiye) –M.: Akademiya, 2001. –208 s.; Vorobyov V.V. Lingvokulturologiya. Teoriya i metodi. –M., 1997.
4. Maslova V.A. Vvedeniye v kognitivnuyu lingvistiku. – M.: Flinta, 2004.
5. Mitali S. Obrasheniye kak element russkogo rechevogo etiketa v sravnenii s bengalskim. Dis. ...kand. filol. nauk. (sokr. elektr. versiya). – M., 2001.

PUBLITSISTIKA VA ADABIYOTSHUNOSLIKNING TARIXAN MUSHTARAKLIGI MASALASI

Shohruh QOSIMOV

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti*

*To'g'on va Qudrat Ernazarov nomidagi
Jamoatchilik bilan aloqalar kafedrasini mudiri*

Ramziddin ABDUSATTOROV

*O'zbekiston Milliy universiteti jurnalistika
fakulteti Jamoatchilik bilan aloqalar va
reklama kafedrasini mudiri, f.f.n., dotsent*

Annotatsiya. Maqolada publitsistika va adabiyotshunoslikda ijtimoiy muammolar talqinidagi sintezlashuv jarayonlarining OAVda yoritilishi qonuniyatlari, ushbu ikki yo'nalishning tarixan mushtarakligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Publitsistika va adabiyotshunoslik, badiiy-publitsistik, ilmiy-publitsistika, jadidchilik, jurnalistika va uning janrlari.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qilgan ilk kunlardan oq ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarida o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu tarixiy nuqtai nazardan asosli, mantiqiy asosga ko'ra zaruriyat ham edi. Milliy tiklanish konsepsiyasi taqozosiga ko'ra, o'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligi ham yangi mavzu va tadqiqotlarni yoritish vazifasiga kirishdi. Ayniqsa, o'tmishning qoralangan, xalq bag'ridan tortib olingan adabiy, ma'naviy merosini qayta tiklash, ilmiy baho berishda matbuotning o'rni beqiyosdir. Shunday qilib, yaqin o'tgan tariximizga doir haqiqatlarning ilmiy-ommabop